

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

***№ 5/5 (5) – 2025***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

#### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

### **07.00.00 – TARIX FANLARI**

|                                                                                                                                                                                               |       |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Abdullaev Ulug'bek Saydanovich</i><br>O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR .....                                                                                                  | 10-14 |
| <i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i><br>BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO'RIQLASH, QOROVULLIKNI O'TASH VA<br>XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI TAHLILI .....                                | 15-19 |
| <i>Рахманкулова Адолат Хушбаковна</i><br>ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И<br>ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ .....                                                            | 20-25 |
| <i>Xusanov Xabibullo Hakimovich</i><br>O'ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI<br>VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI<br>VA UNING TARIXIY AHAMIYATI ..... | 26-30 |
| <i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i><br>THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR .....                                                                  | 31-38 |
| <i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i><br>THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE<br>OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....                                                            | 39-42 |
| <i>Nazirov Baxtiyor, Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li</i><br>IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING<br>IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI .....                                  | 43-48 |

### **08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

|                                                                                                                                                       |       |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Исламутдинов Вадим</i><br>СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ<br>В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....                                               | 49-54 |
| <i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i><br>BENCHMARKING KICHIK INNOVATION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI<br>OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA..... | 55-65 |
| <i>Ульмас Ибрагимов</i><br>ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ<br>МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....                           | 66-75 |

### **09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

|                                                                                                                         |       |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Salomova Hakima Yusupovna</i><br>ME'YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI .....                | 76-83 |
| <i>Djumanioyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i><br>YURIDIK TA'LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA..... | 84-90 |
| <i>Djo'raev Anvar Muxamadiyevich</i><br>IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI .....                                  | 91-96 |

|                                                                                                                                                                                    |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Каримова Гулчехра Самадовна</i><br>ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ:<br>МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО-<br>ЭТИЧЕСКИХ..... | 97-101  |
| <i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i><br>ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД<br>НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....                                            | 102-105 |
| <i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i><br>YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....                                                                                | 106-110 |
| <i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i><br>O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....                                                                            | 111-116 |
| <i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i><br>TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....                                                                                   | 117-120 |
| <i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i><br>SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD<br>QADRIYATLARNING TA'SIRI .....                                             | 121-125 |
| <i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i><br>ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT<br>VA SAN'AT FALSAFASI .....                                                | 126-130 |
| <i>Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин</i><br>ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ<br>О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....                                              | 131-135 |
| <i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'aliyevna</i><br>EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....                                                                                         | 136-139 |
| <b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>                                                                                                                                               |         |
| <i>Muqumova Dilafruz</i><br>IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI<br>MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....                                                 | 140-147 |
| <i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i><br>TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI.....                                                                                                     | 148-159 |
| <i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i><br>ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS<br>OF METAPHORICAL INNOVATIONS .....                                          | 160-163 |
| <i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i><br>FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY<br>TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI .....                                                             | 164-168 |
| <i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i><br>TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING<br>O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI .....                              | 169-172 |
| <i>Berdikulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i><br>BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI:<br>O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA .....                                | 173-177 |
| <i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i><br>FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....                                                                              | 178-182 |

|                                                                                                                                                            |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Яркулова Фотима Усмановна</i><br>ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ.....                                                                                      | 183-186 |
| <i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i><br>O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA<br>KELTIRUVCHI VOSITALAR.....                | 187-190 |
| <i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i><br>THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART"<br>IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE"..... | 191-195 |
| <i>Yuldasheva Kamola</i><br>SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN<br>PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....                                               | 196-202 |
| <i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i><br>HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....                                                         | 203-206 |
| <i>Kamola Hatamova</i><br>HUIJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....                                                                        | 207-210 |

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

|                                                                                                                                                                 |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i><br>PROBATSIIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI<br>BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI ..... | 211-216 |
| <i>Mamatmurodov Farrux</i><br>METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES.<br>INTERNATIONAL EXPERIENCE .....                            | 217-222 |
| <i>Муталипова Лола Фархадовна</i><br>СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО<br>ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....                                   | 223-234 |
| <i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i><br>ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ .                                                         | 235-241 |
| <i>Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna</i><br>RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....                                                    | 242-246 |

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

|                                                                                                                                                            |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i><br>RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI<br>MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI..... | 247-252 |
| <i>Namozova Dilorom Tursunovna</i><br>MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI<br>RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI .....                    | 253-261 |
| <i>Давыдова Руфина Артуровна</i><br>РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ<br>СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ .....                                 | 262-266 |
| <i>Gaziev Baxromjon Valievich</i><br>OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI .....                                                       | 267-273 |

|                                                                                                                                                                           |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i><br>DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:<br>O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....                         | 274-279 |
| <i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i><br>TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING<br>KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:<br>AMALIYOT VA TAJRIBA..... | 280-286 |
| <i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i><br>MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA<br>QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....                        | 287-290 |
| <i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i><br>IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI .....                                                           | 291-295 |
| <i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i><br>TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI .....                                                       | 296-301 |

**Received:** 2 June 2025  
**Accepted:** 15 June 2025  
**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

## **OPPORTUNITIES FOR ENHANCING CREATIVE THINKING OF STUDENTS IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: PRACTICE AND EXPERIENCE**

**Rakhmonova Dilnura Saidovna**

Senior Lecturer, Department of languages and humanities,  
Andijan State Technical Institute

**Abstract.** This article discusses the urgent issues of developing creative thinking skills in students of technical higher education institutions. The effectiveness of modern pedagogical technologies, practical assignments, project-based learning, and interactive methods in fostering creative thinking is analyzed based on practical examples.

**Keywords:** creative thinking, technical education, innovative methods, practice, project-based learning.

## **TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: AMALIYOT VA TAJRIBA**

**Rakhmonova Dilnura Saidovna**

“Tillar va gumanitar fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi  
Andijon davlat texnika instituti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada texnik oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb masalalari yoritilgan. Kreativ fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, amaliy topshiriqlar, loyihaviy ta'lim, hamda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi amaliy misollar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kreativ fikrlash, texnik ta'lim, innovatsion metodlar, amaliyot, loyiha asosidagi ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N46>

**Kirish.** Bugungi raqobatbardosh va tezkor o'zgarayotgan dunyoda texnik mutaxassislar nafaqat nazariy bilimlarga, balki kreativ fikrlash va yangicha yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishlari zarur. Kreativ fikrlash bugungi ta'limning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ayniqsa texnik oliy ta'limda bu yondashuv ishlab chiqarish, dizayn, muhandislik kabi yo'nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada texnik yo'nalishdagi talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik vosita va uslublar, shuningdek amaliy tajribalar tahlil etiladi.

Texnik oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar nafaqat o'z kasbiy bilimlariga ega bo'lishlari, balki yangicha fikrlash, ijodkorlik bilan muammolarga yechim topish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish qobiliyatlariga ham ega bo'lishlari zarur. Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalar ongida kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Metodologiya.** Kreativ fikrlash bu — mavjud bo‘lgan bilimlar asosida yangi, noodatiy va foydali g‘oyalarni ilgari surish, muammolarga yangicha yondashish, tanqidiy baholash va samarali qarorlar qabul qilish jarayonidir. Texnik sohalarida tahsil olayotgan talabalar uchun bu jarayon yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki muhandislik, axborot texnologiyalari, energetika, avtomatika kabi yo‘nalishlarda muammolar ko‘pincha noan‘anaviy yondashuvni, ya‘ni ijodkorlik va kreativ fikr asosida yechim topishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli qarorida oliy ta’limda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, talabalar faoliyatiga loyiha va amaliy topshiriqlarni ko‘proq kiritish, kreativ va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga alohida urg‘u berilgan. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

Kreativ fikrlash zamonaviy ta’limda eng muhim ko‘nikmalardan biri sifatida e’tirof etilib, inson faoliyatining barcha sohalarida muvaffaqiyat kalitiga aylanmoqda. Ayniqsa, ilmiy-texnik taraqqiyotning tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan davrida kreativ fikrlash har bir mutaxassis uchun zaruriy kompetensiyalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda “kreativ fikrlash”ga berilgan ta’riflar turlicha bo‘lsa-da, ularning barchasi umumiy mohiyatda – yangilikka intilish, mavjud bilim asosida noodatiy va samarali qarorlar chiqarish qobiliyatini anglatadi. Amerikalik olim E.P. Torrance kreativ fikrlashni “muammolarni sezish, ularni o‘rganish, yangicha yondashuvlar orqali yechim topish qobiliyati” sifatida ta’riflaydi [4; 58-b.]. Uning fikricha, kreativlik insonning tasavvur qilish, yangi bog‘lanishlarni yaratish, mavjud tafakkur doirasidan chiqib ketish salohiyatidir. Mashhur olim G. Alxutov esa kreativ fikrlashni “inson tafakkurining erkin, mustaqil, shablondan chetda turuvchi turi” deb ataydi. Uningcha, kreativ tafakkur orqali inson o‘z bilimlarini qayta ko‘rib chiqadi, muammoga yangicha ko‘z bilan qaraydi, yangi g‘oyalarni ilgari suradi [2; 112-b.]. Psixologik nuqtai nazardan, kreativ fikrlash — bu intellektual faoliyatning bir shakli bo‘lib, u asosan divergent fikrlash (bir necha yo‘nalishda fikr yurita olish), tasavvur, emotsional barqarorlik va motivatsiya kabi omillarga bog‘liq. Kreativlikning rivojlanishi uchun insonning individual qobiliyatlari, tashqi muhit, ta’lim olgan tizimi va uni o‘rab turgan ijtimoiy omillar muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik yondashuvlarda esa kreativ fikrlashni rivojlantirishda quyidagi mezonlar alohida ajratib ko‘rsatiladi:

- o‘quv jarayonining interaktivligi va ochiqqligi;
- muammoli vaziyatlar yaratish orqali mustaqil qaror qabul qilishga undash;
- talabalarni mustaqil izlanish, loyiha ishlari, tadqiqot faoliyatlariga jalb qilish;
- fikr erkinligini rag‘batlantiruvchi metodlardan foydalanish (breynstorming, akvarium, “rol o‘ynash” mashqlari).

Texnik soha vakillari uchun kreativ fikrlash nafaqat ijodiy yondashuvni, balki samarali muammo yechimini, innovatsion g‘oyalarni ilgari surishni ham anglatadi. Masalan, bir muhandis texnik nosozlikka uchragan tizimni faqat standart usullar bilan emas, balki o‘z g‘oyasi orqali yangicha texnologik yechim topa olsa, u aynan kreativ fikrlash mahsuli sanaladi. Shuningdek, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari, avtomatlashtirilgan tizimlar, sun‘iy intellekt, kiberxavfsizlik kabi yo‘nalishlarda innovatsion tafakkur zaruratga aylangan. Bu esa texnik ta’lim tizimida o‘quv dasturlarini yangilash, amaliy topshiriqlarni ko‘paytirish, interfaol metodlar asosida darslarni olib borishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalarda ham kreativlik va innovatsion fikrlashni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Jumladan, "Raqamli ta'lim" platformalari orqali talabalarning mustaqil fikrlashi va yangi g'oyalar ilgari surishiga keng yo'l ochilmoqda [1; 25–26-b.].

Xulosa qilib aytganda, kreativ fikrlash — bu o'quvchi va talabaning intellektual salohiyatini faollashtiruvchi, uni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh kadrga aylantiruvchi asosiy omildir. Ayniqsa, texnik sohalarda bu ko'nikma innovatsion taraqqiyotning negizi hisoblanadi.

**Natijalar.** Zamonaviy dunyoda texnologik taraqqiyotning jadalligi, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning keng qo'llanilishi texnik soha mutaxassislaridan faqat nazariy bilim emas, balki yangi g'oyalarni ilgari surish, kreativ yondashuv orqali muammolarni hal etish qobiliyatini ham talab qilmoqda. Shu bois texnik oliy ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. So'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab ishlab chiqarish, transport, tibbiyot, qurilish, axborot texnologiyalari, energetika kabi sohalarda ilg'or texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Ayniqsa, to'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) doirasida robototexnika, Internet of Things (IoT), Big Data, blokcheyn va boshqa ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi yangi fikrlash tarzini talab qilmoqda. Ushbu jarayonda o'zini anglashi, kreativ yondashuvi va muammolarga innovatsion qaror topa oladigan kadrlar eng yuqori qadrlanadi. Bu holat texnik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun yangi chaqiriqlarni yuzaga keltiradi. Ular nafaqat mavjud bilimlarni o'zlashtirishlari, balki ularni tahlil qilish, yangi tizimlar yaratish, modellashtirish va muammoli holatlarga yangicha qarash orqali yechimlar taklif eta olishlari zarur. Masalan, mashinasozlik yo'nalishida ishlab chiqarilayotgan mexanizmlarni energiyani kam sarflovchi shaklda yaratish uchun oddiy texnik bilimdan tashqari kreativ yondashuv ham zarur bo'ladi [3; 74–75-b.]. Shu bois, zamonaviy texnologiyalar yaratgan yangi mehnat bozori real sharoitida, kreativ fikrlovchi mutaxassislar yuksak raqobatbardoshlikka ega bo'ladi. Bunday sharoitda texnik oliy ta'lim muassasalari o'z o'quv jarayonlarini innovatsion va kreativ yondashuvlar asosida tashkil etishlari zarur.

Muhandislik va texnik yo'nalishlardagi fanlar, ko'p hollarda formulalar, algoritmlar va qat'iy standartlarga asoslanganligi sababli, talabalarda ijodiy fikrlash salohiyati ikkinchi planda qolib ketishi mumkin. Ammo so'nggi yillarda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) modeli asosida texnik yo'nalishlarda san'at va ijodkorlik elementlarini kiritish orqali kreativ fikrlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu yondashuv talabalarning abstrakt va mantiqiy fikrlash bilan bir qatorda, dizayn, vizualizatsiya, yangi yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Shuningdek, muhandislik yo'nalishlarida o'qitilayotgan darslarda loyiha asosidagi ta'lim (Project-Based Learning), muammoli o'qitish (Problem-Based Learning), rol o'ynash, modellashtirish, beyin shturmi (brainstorming) kabi interfaol metodlarni qo'llash orqali talabalarni real muammolar ustida ishlashga jalb etish mumkin. Masalan, elektrotexnika yo'nalishidagi talaba elektr zanjiridagi nosozlikni bartaraf etishda faqat darslikdagi sxemalardan emas, balki o'z fantaziyasi asosida muqobil yechimni taklif qila olsa, bu kreativ fikrlashning yaqqol namunasidir [5; 34-b.]. Ayni paytda dunyoning yetakchi universitetlari, xususan, MIT (AQSH), TUM (Germaniya), Tokyo Tech (Yaponiya) singari texnik oliy ta'lim muassasalari talabalarning kreativlik ko'nikmalarini shakllantirish uchun maxsus inkubatorlar, innovatsion laboratoriyalar, virtual muhitlar va startap maydonlarini

yaratmoqda. Ularning tajribasini o'rganish orqali O'zbekiston texnik oliy ta'lim tizimi uchun ham samarali yo'llar ishlab chiqish mumkin. Shu o'rinda O'zbekiston texnik universitetlari tomonidan amalga oshirilayotgan "Innovatsion rivojlanish konsepsiyasi", "Yoshlar texnoparklari", "Startup loyihalar" orqali talabalarni kreativ muhitga jalb etish amaliyoti e'tiborga molikdir. Ammo bu tashabbuslarning samaradorligi ko'proq tizimli yondashuv, malakali pedagoglar va zamonaviy infrastrukturaga bog'liq.

Texnik oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan birga, innovatsion fikrlash, kreativ yondashuv, muammoni yangicha hal qilish salohiyatini rivojlantirishlari zarur. Buning uchun o'quv jarayoniga kreativ fikrlashni shakllantiruvchi metodik yondashuvlarni kiritish eng muhim masalalardan biridir. Bu borada quyidagi amaliy metodlar yuqori samaradorlikka ega.

Muammoli o'qitish metodi talabalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu metodda o'qituvchi dars davomida aniq yechimi mavjud bo'lmagan, yoki bir nechta alternativ yechimga ega bo'lgan real hayotiy yoki texnologik muammolarni qo'yadi. Masalan, "Mashinasozlik materiallari" fanidan talabalarga korroziyaga qarshi samarali himoya texnologiyasini ishlab chiqish vazifasi beriladi. Ular bu muammoni yechishda kimyoviy, fizikaviy, iqtisodiy va ekologik jihatlarni hisobga olishga majbur bo'ladi. Bu esa ularning kreativ tahlil qilish, fanlararo yondashuv va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini faollashtiradi [6; 45-b.]. Loyiha asosida o'qitish talabalarni real va kompleks muammolar asosida ishlashga, nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lashga va yangi mahsulot yoki yechim yaratishga undaydi. Bu metodda talaba dars davomida muayyan loyiha ustida ishlaydi — masalan, "Aqlli avtomatika tizimi loyihasi", "Ekologik toza energiya manbai modeli", "Sun'iy intellekt yordamida boshqariluvchi dron" kabi.

Bunday yondashuv nafaqat talabani chuqur bilim olishga, balki mustaqil izlanishga, ijodiy fikrlashga, guruhda ishlash ko'nikmasiga, va eng muhimi — o'z g'oyasini himoya qila olishga o'rgatadi [2; 77–78-b.].

**Muhokama.** Loyihaviy o'qitishda kreativ fikrlash, odatda, quyidagi bosqichlarda rivojlanadi:

1. Muammoni aniqlash va tahlil qilish.
2. Muqobil yechimlar ishlab chiqish.
3. Eng maqbul variantni tanlash.
4. Amalga oshirish va tahlil qilish.
5. Natijani baholash va himoya qilish.

An'anaviy STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) modeliga san'at (Art) komponentining qo'shilishi orqali vujudga kelgan STEAM yondashuvi bugungi kunda eng samarali interfaol ta'lim texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Bu model texnik ta'limda ijodkorlik, dizayn tafakkuri, vizual tafakkur, estetikani qadrlash kabi sifatlarni ham rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, elektrotexnika darsida nafaqat elektr zanjirini tuzish, balki uni ergonomik, funksional va dizaynga ega bo'lgan holda yaratish topshirig'i berilishi orqali talabalar murakkab tizimlarni kreativ tarzda yaratishga undaladi. Bu yondashuvda san'at va texnologiya sintezi orqali innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish ko'nikmasi shakllanadi [1; 29-b.]. Texnik oliy ta'limning ajralmas qismi bo'lgan laboratoriya va amaliy

mashg'ulotlar — talabalar uchun kreativlikni sinovdan o'tkazish va mustahkamlash imkonini beradigan muhim bosqichdir. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

- Amaliy topshiriqlarni ijodiy yechim talab qiladigan shaklda ishlab chiqish;
- Talabalarni standart natijalar emas, yangi, samarali va innovatsion yechimlar topishga undash;
- Har bir laboratoriya ishidan so'ng tahliliy hisobot tayyorlash, muqobil yondashuvlarni muhokama qilish.

Masalan, "Termodinamik tizimlarda issiqlik almashinuvi" mavzusida laboratoriya ishlari faqat mavjud sxemalarni takrorlashdan iborat bo'lmasdan, talabalarga issiqlik yo'qotilishini kamaytirish bo'yicha o'z takliflarini ishlab chiqish vazifasi yuklansa, ularning kreativ fikrlash faollashadi. Shuningdek, laboratoriyalarda ochiq savollar, tajriba asosida kuzatuvlar va muammoli holatlar orqali talabalarni mustaqil izlanishga yo'naltirish orqali ham ijodiy yondashuv rivojlanadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish bugungi kunda dunyo oliy ta'lim tizimlarining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, texnik yo'nalishlardagi kasb-hunar va muhandislik ta'limida ijodiy yondashuvga asoslangan, amaliyot bilan uyg'unlashtirilgan ta'lim modellari samarador natijalar bermoqda. Quyida ushbu sohadagi ilg'or xorijiy tajribalar ko'rib chiqiladi va ular O'zbekiston texnik oliy ta'lim muassasalaridagi holat bilan qiyoslanadi. Finlyandiya ta'lim tizimi dunyoda eng kreativ va amaliy yondashuvlarga asoslangan modellaridan biri hisoblanadi. Bu mamlakatda ta'limda muammoli holatlarni o'rganish, loyiha asosida ishlash (PBL), hamkorlikda qaror qabul qilish asosiy metodlar sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari "Phenomenon-based learning" (hodisaga asoslangan ta'lim) orqali fanlar integratsiyasi, real hayotdagi muammolar yechimi va kreativ fikrlash uyg'un holda rivojlantiriladi [2; 91-b.]. Texnik yo'nalishlarda, xususan politexnik kollejlarda talabalar har semestrda amaliy loyiha himoyasini o'taydi va har bir loyiha guruhli ijodiy yondashuvga asoslanadi.

Germaniyada texnik oliy ta'lim tizimi kuchli amaliy asosga ega. Bu yerda:

- "Dual ta'lim modeli" asosida o'qish ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtiriladi.
- Talabalar dars jarayonida muayyan korxonalar bilan hamkorlikda real loyiha va muammolar ustida ishlashadi.
- Kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun talabalar o'rtasida startup loyihalar, texnoparklarda ishlash, dizayn fikrlash (design thinking) metodikasi keng qo'llaniladi [3; 60-b.].

Bu tizim orqali talaba nafaqat kasbiy bilimni, balki amaliy muammoga kreativ yondashishni, mustaqil fikr yuritishni o'rganadi. Janubiy Koreya texnik ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va zamonaviy platformalardan keng foydalanadi: muhandislik yo'nalishida o'qituvchilar va talabalar raqamli dizayn, sun'iy intellekt, AR/VR texnologiyalari asosida amaliy topshiriqlar ustida ishlashadi. "Maker space"lar, robototexnika laboratoriyalari, virtual amaliyot maydonchalari orqali talabalarining kreativ va eksperimental fikrlashini rag'batlantirishga alohida e'tibor beriladi. Kreativ fikrlash talabalarining reytingida alohida mezon sifatida baholanadi — ya'ni g'oyalar originality (yangi), feasibility (amalga oshirilishi mumkinligi) va impact (foydaliligi) darajalariga qarab baholanadi [4; 43-b.].

O'zbekistonda texnik oliy ta'lim muassasalarida ham oxirgi yillarda kreativ fikrlashni rivojlantirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda:

Kreativ iqtisodiyot va innovatsion muhitni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari doirasida yangi yondashuvlar joriy qilinmoqda. Ko'plab texnik OTMlarda STEAM yondashuvi, loyiha asosida ta'lim, muammoli o'qitish metodlari amaliyotga kirib kelmoqda. Biroq, ilg'or xorijiy tajribalardan farqli o'laroq, ko'plab muassasalarda:

loyihaviy yondashuv faqat nazariy tusda qolmoqda, ijodiy baholash mezonlari tizimlashtirilmagan, laboratoriya ishlari ko'proq standart va shablon asosida olib borilmoqda.

Masalan, Finlyandiya va Koreyada talaba mustaqil ravishda yangi texnologik yechimni ishlab chiqib, uni ishlab chiqarishdagi real muammo asosida himoya qilsa, O'zbekistonda bu jarayon ko'pincha o'qituvchi ko'rsatmasi bilan chegaralanadi.

Shu bois, xalqaro tajribalarning eng muhim jihatlarini O'zbekiston texnik OTMlarida joriy etish zarur: Talabalarning kreativ fikrlashini loyihaviy, muammoli, raqamli platformalar asosida rivojlantirish, har bir o'quv faniga kreativlikka asoslangan amaliy topshiriqlarni tizimli kiritish, baholash mezonlarini g'oya yangiligi, mustaqilligi va amaliy qiymati asosida yo'lga qo'yish.

**Xulosa.** Texnik oliy ta'lim muassasalarida kreativ fikrlashni rivojlantirish dolzarb masala bo'lib, u zamonaviy mehnat bozorining talablariga javob beradigan, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topa oladigan, innovatsion fikrlovchi kadrlarni tayyorlashni ta'minlaydi. Kreativ fikrlashni rivojlantirishga doir xalqaro tajribalar va mahalliy tahlillar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

- **Loyiha asosidagi topshiriqlarni har bir texnik fan doirasida joriy etish** (loyihalarda tanqidiy fikrlash, muammoni aniqlash va yechim ishlab chiqish asosiy mezon bo'lsin);
- **STEAM integratsiyasi asosida o'quv dasturlarini yangilash**, masalan: texnologiya + dizayn + iqtisod asosida mustaqil ishlanmalar yaratish;
- Har bir laboratoriya ishiga **innovatsion yoki kreativ yechim komponenti** kiritish (masalan: standart laboratoriya topshirig'iga qo'shimcha "o'zgacha yondashuv" elementi);
- **O'qituvchilar uchun maxsus treninglar** (creative teaching strategies, design thinking, gamification, ijodiy muammolar ishlab chiqish bo'yicha);
- **Motivatsion muhit yaratish** — kreativ loyihalar tanlovi, texnik hackathonlar, prototiplash musobaqalari va g'oya festivallarini joriy etish;
- **Baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqish** — faqat texnik to'g'rilik emas, balki yechimlarning yangiligi, kreativligi va mustaqilligi inobatga olinsin.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mavjud tizimda kreativlikni rag'batlantirishga qaratilgan metodikalar mavjud bo'lsa-da, ularning amaliy tatbiqi yetarli emas. O'quv jarayonida kreativ yondashuvni shakllantirish uchun xalqaro tajribalardagi ilg'or metodlarni milliy sharoitga moslashtirish, o'qituvchilarning metodik salohiyatini oshirish, baholash mezonlarini yangilash zarur. Kelgusida tadqiqotlar doirasini kengaytirish — real so'rovnomalar, eksperimental guruhlar orqali o'qitish samaradorligini o'rganish, yangi ta'lim texnologiyalari asosida innovatsion kurslar ishlab chiqish lozim.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Abduvaliyev, A. va boshq. Texnik ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2022. – 198 b.
2. Ahmadiyeva, M. STEAM yondashuvi orqali kreativ fikrlashni shakllantirish // Pedagogika jurnali. – 2023. – №4. – B. 90–94.

3. Bekmurodov, O. Germaniya ta'lim tizimidagi "dual ta'lim" modelining mohiyati // Yangi O'zbekiston ilm-fan xabarnomasi. – 2022. – №7. – B. 58–61.
4. Cho, H. Creative Learning in South Korea: EdTech and Digital Solutions. – Seoul: KERIS, 2021. – P. 41–46.
5. Davies, D. & Newton, L. Creativity in Teaching and Learning in the Context of the National Curriculum // British Educational Research Journal. – 2019. – Vol. 30(2). – P. 243–260.
6. Jalilova, S. Texnik yo'nalishlarda loyiha asosida o'qitishning samarasi // Ilm va Taraqqiyot. – 2023. – №1. – B. 30–33.
7. Kim, Y. Design Thinking and Engineering Education in Korea // Journal of Engineering Pedagogy. – 2020. – Vol. 18(4). – P. 55–60.
8. Qodirov, I. Pedagogik texnologiyalar va kreativlik. – Toshkent: Ilm Ziya, 2021. – 146 b.
9. OECD. Fostering Creativity and Critical Thinking in Higher Education. – OECD Publishing, 2019. – 188 p.
10. Sattorov, T. Texnik oliy ta'limda innovatsion metodlar // Ta'lim va Fan. – 2022. – №5. – B. 12–16.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 5/5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).